

YOSHLAR JINOYATCHILIGINING IJTIMOYIY-PSIXOLOGIK SABABLARI

Turdimuratov Jasur Nurmamat o'g'li

Guliston davlat universiteti mustaqil tadqiqotchisi.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.18354579>

Annotatsiya. Ushbu maqolada yoshlar jinoyatchiligining ijtimoiy-psixologik sabablari, kelib chiqish omillari va yakuni to'g'risidagi huquqiy asoslari va psixologik kelib chiqish sabablari ham ochiqqlangan.

Maqolaning asosiy maqsadi — yoshlarning jinoyatga moyilligiga sabab bo'luvchi psixologik omillarni aniqlash, ularni tizimli tahlil qilish va ularning oldini olishga qaratilgan tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Kalit so'zlar: jinoyat, yoshlar, muammo, huquq, qonun, psixologiya, sotsiologiya, emotsional holat, shaxs, oila.

Аннотация. В данной статье рассматриваются социально-психологические причины, факторы возникновения и последствий подростковой преступности, а также правовые основы психологических причин.

Основная цель статьи – выявление психологических факторов, побуждающих молодежь к совершению преступлений, их систематический анализ и разработка рекомендаций по предотвращению таких преступлений.

Ключевые слова: преступность, молодежь, проблема, право, психология, социология, эмоциональное состояние, личность, семья.

Abstract. This article discusses the socio-psychological causes, factors of origin and outcome of youth crime, as well as the legal basis for psychological causes.

The main purpose of the article is to identify psychological factors that cause youth to commit crimes, to systematically analyze them and to develop recommendations for their prevention.

Keywords: crime, youth, problem, law, psychology, sociology, emotional state, personality, family.

Yoshlar jinoyatchiligi global muammo bo'lib, ko'plab mamlakatlarda ijtimoiy barqarorlikka tahdid solmoqda. Ularning jinoyatchilikka yo'l qo'yishining sabablari murakkab va ko'p qirrali bo'lib, ijtimoiy va psixologik omillarni o'z ichiga oladi.

Bugungi kunda yoshlar orasida sodir etilayotgan huquqbuzarlik va jinoyatlar jahon miqyosida ijtimoiy xavotir uyg'otmoqda. O'zbekiston ham bundan mustasno emas.

Respublikada jinoyat sodir etgan shaxslarning muhim qismini 14–30 yosh oralig'idagi fuqarolar tashkil etadi. Jinoyat huquqi, sotsiologiya, va yuridik psixologiya sohalarida olib borilgan tadqiqotlar shuni ko'rsatmoqdaki, jinoyatga moyillikning psixologik ildizlari chuqur va murakkabdir.

Yosh davri — bu shaxsiyat shakllanishining eng nozik, emotsional jihatdan beqaror, ijtimoiy bosimga eng sezgir bo'lgan bosqichi hisoblanadi. Aynan shu bosqichda jinoyatga sabab bo'luvchi omillar — oilaviy ziddiyat, ijtimoiy beqarorlik, yomon do'stlar ta'siri, axborot texnologiyalarining salbiy jihatlari — kuchliroq seziladi.

Jinoyatga psixologik yondashuvda e'tibor shaxsning ichki olamiga — ya'ni emotsional holati, motivatsiyasi, impulsivlik darajasi, ijtimoiy me'yorlarni qabul qilish darajasiga qaratiladi.

Psixologik nuqtai nazardan jinoyat — bu normativ cheklovlarni buzishga psixik moyillik natijasi sifatida shakllanadi. Bu holat shaxsda mavjud bo'lgan: Emotsional beqarorlik, empatiya yetishmovchiligi, ijtimoiy izolyatsiya, nomaqbul psixologik modellar (zo'ravonlikni qo'llab-quvvatlash) kabi omillar ta'sirida yuzaga keladi.

Yoshlarning jinoyatga moyilligida quyidagi psixologik omillar asosiy o'rin tutadi:

Impulsivlik: Harakat natijasini o'ylamaslik

Hissiy beqarorlik: Stressni boshqara olmaslik

Empatiya yetishmovchiligi: Boshqalarning holatini tushunmaslik

Ma'naviy qadriyatlarning zaifligi: Oilaviy tarbiya jinoyatga qarshi immunitetning asosi hisoblanadi.

Oiladagi stress, zo'ravonlik, befarqlik, ajralish, ota-onaning psixologik befarqligi — bu omillar o'smirda tajovuzkorlikni kuchaytiradi. Ko'plab jinoyatchilar voyaga yetganda oilaviy mehrni his qilmagan.

Jinoyatchilik hodisasini bir butun deb oladigan bo'lsak, yoshlar jinoyatchiligi uning ajralmas, joiz bo'lsa asosiy qismi bo'lib hisoblanadi. Chunki, bolalik yoki o'smirlik yoshidan boshlangan qonunbuzarlik yoki jinoyatchilik ba'zan kishining butun umrini qamrab olishi mumkin. Shu boisdan bugungi kunda butun dunyo miqyosida voyaga yetmaganlar jinoyatchiligi muammosini har tomonlama tadqiq etish va uning oldini olish masalasi eng dolzarb masalalardan biriligi qolmoqda.

Mamlakatimizda ijtimoiy-siyosiy, ma'naviy muhitni barqarorlashtirishning muhim shartlaridan biri yosh avlodni har tomonlama etuk qilib tarbiyalashdir. Voyaga yetmaganlar jinoyatchiligini ilmiy o'rganish borasida olib borilgan tadqiqotlarni kuzatar ekanmiz, bu muammo yuzasidan xilma-xil fikr-mulohazalar va qarashlar o'rta tashlanganligining guvohi bo'lamiz.

Ma'lumki, insonning ma'naviy olami va xulq-atvoriga u yashayotgan muhit va shart-sharoitlari doimiy ravishda ta'sir etib turadi. Uning ayrimlari kishiga to'g'ridan-to'g'ri ta'sir ko'rsatsa, ayrimlari bilvosita tarzda ta'sir qiladi. Jinoyatchilik xulqining ijtimoiy-psixologik omillari deganda, eng avvalo makro va mikromuhit deb nomlangan ikki katta tushunchalarga izoh berib o'tish lozim bo'ladi. Jinoyatchilikning psixologik omillari esa jinoyatchi shaxsining individual-psixologik va yosh davri xususiyatlari jamlanmasi ma'nosida talqin qilinadi.

Makromuhit, ya'ni katta ijtimoiy qatlamdagi munosabatlar, xususan jamiyatning iqtisodiy munosabatlari, siyosiy xokimiyatning tashkil etilishi, jamiyatdagi siyosiy vaziyat, ijtimoiy ongning shakllari hamda kishilarning katta guruhlariga hisoblangan millat, siyosiy partiyalar, harakatlar, ijtimoiy va professional guruhlar va boshqalar asosida tashkil topadi. Mikromuhit esa shaxsga to'g'ridan-to'g'ri ta'sir qiluvchi, ya'ni insonni qurshab olgan muhitni, uning oilaviy muhitini, mehnat faoliyati, shart-sharoitlari, xizmat ko'rsatishi va dam olishini hamda u faoliyat ko'rsatayotgan mehnat jamoasi va turli xil ehtiyojlarni qondirish yo'lidagi muomala munosabatlarini qamrab oladi.

Makromuhitning jinoyatchilik xulqining kelib chiqishiga ta'siri to'g'risida gapirilganda avvalo jamiyatdagi ijtimoiy-iqtisodiy shart-sharoit, kishining turmush tarzi, ijtimoiy mavqei, jamiyatda tutgan o'rni to'g'risida to'xtalib o'tish lozim bo'ladi.

Jamiyatning iqtisodiy inqirozi kishilarning turmush tarziga, hayot kechirishiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Bu kishilarni jamiyatda o'z o'rnini, hayotini saqlab qolish uchun turli xil g'ayriijtimoiy xatti-harakatlarni bajarishga undaydi.

Oqibatda bunday jamiyatda qonunning ustuvorligi yo'qoladi, turli xil qonunbuzarliklar, jumladan o'g'irlik, bosqinchilik, zo'ravonlik kabi jinoyatlar avjiga chiqadi. Mamlakatda siyosiy beqarorlikning hukm surishi, muayyan mafkura va g'oyaning yo'qligi ham turli xil qonunbuzarlikning kelib chiqishiga imkoniyat yaratadi. Kuzatishlarimizga qaraganda, voyaga yetmaganlarning bezoriliklari ko'pincha o'zini ko'rsatish va ermak, ovunchoq sifatida, tengdoshlarini kuldirish, qiliqlar ko'rsatish ma'nosida sodir etiladi.

O'smirning bu xildagi xatti-harakatlari ba'zan jamiyatga, kishilarga jiddiy putur etkazishi va jinoiy harakatga aylanishi mumkin.

Yoshlar jinoyatchiligiga quyidagi sabablar sabab bo'ladi deb ko'rsata olamiz.

Ijtimoiy sabablar:

1. Oila muhitining ta'siri:

– Oila – yoshlarning dastlabki ijtimoiylashuv manbai. Oila ichidagi munosabatlar, otalarning tarbiyasi va bolalar bilan aloqasi, ularning psixologik holatiga ta'sir qiladi. Oila ichidagi zo'ravonlik, e'tiborsizlik yoki befarqlik yoshlarning jinoyatchilikka moyilligini oshirishi mumkin.

2. Ijtimoiy-iqtisodiy sharoit:

– Iqtisodiy qiyinchiliklar, ishsizlik va kam ta'minlanganlik yoshlarni jinoyatchilikka jalb qilishi mumkin. Ijtimoiy tengsizlik va imkoniyatlarning cheklanganligi, ayniqsa, yoshlar o'rtasida jinoyatchilikni keltirib chiqaradi.

3. Mahalliy jamoa muhitining ta'siri:

– Mahalladagi jinoyatchilik darajasi va jamoaviy qadriyatlar yoshlarning ijtimoiy xulq-atvoriga ta'sir ko'rsatadi. Agar mahallada jinoyatchilik keng tarqalgan bo'lsa, yoshlar o'zlarini xavfsiz his qilmaydilar va bu ularni jinoyatga yo'l qo'yishga undaydi.

Psixologik sabablar:

1. Identitet va o'z-o'zini anglash:

– Yoshlar o'z identitetini shakllantirish jarayonida ko'plab psixologik muammolar bilan duch keladilar. O'zini yo'qotish, o'ziga ishonchsizlik va ijtimoiy qabul qilinishni istash, ba'zan jinoyatchilikka olib kelishi mumkin.

2. Stress va emosional holatlar:

– Yoshlar ko'pincha stress, depressiya yoki boshqa psixologik muammolarga duch kelishadi. Ular bu hissiyotlarni bartaraf etish uchun agressiv xulq-atvor yoki jinoyatga murojaat qilishlari mumkin.

3. Guruh bosimi:

– Yoshlar o'z tengdoshlari tomonidan bosim ostida bo'lishlari mumkin. Guruhda qabul qilinish istagi, ba'zan jinoyatga yo'l qo'yishga olib keladi, chunki ular guruhning talablariga moslashishga harakat qiladilar.

Xulosa. Yoshlar jinoyatchiligining ildizlarini tushunish uchun psixologik, ijtimoiy va oilaviy omillarni kompleks tarzda o'rganish lozim.

Jinoyatga moyillik ko'plab psixologik sabablarga bog'liq bo'lib, ularni bartaraf etish uchun keng qamrovli profilaktika va rehabilitatsiya dasturlari ishlab chiqilishi zarur. Bu borada davlat, jamiyat, ta'lim muassasalari va oilalarning hamkorligi katta ahamiyatga ega.

Yoshlar jinoyatchiligi ijtimoiy va psixologik omillarning murakkab o'zaro ta'siri natijasida yuzaga keladi. Oila, ijtimoiy-iqtisodiy sharoit, mahalliy jamoa muhitining ta'siri, shuningdek, yoshlarning psixologik holati va guruh bosimi kabi faktorlar bu jarayonda muhim rol o'ynaydi.

Ushbu muammoni hal qilish uchun kompleks yondashuv zarur bo'lib, yoshlarni qo'llab-quvvatlash, ta'lim berish va ijtimoiy dasturlarni rivojlantirish orqali ularning jinoyatchilikka yo'l qo'yishini kamaytirish mumkin.

Tavsiyalar:

- Oila tarbiyasini kuchaytirish va ota-onalar uchun treninglar o'tkazish.
- Yoshlar uchun kasb-hunar tayyorlash dasturlarini kengaytirish.
- Mahallalarda ijtimoiy tadbirlar va sport musobaqalarini tashkil etish.
- Psixologik yordam xizmatlarini kengaytirish va yoshlarni ruhiy salomatlikka oid ma'lumotlar bilan ta'minlash.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Bandura, A. Social Learning Theory. Englewood Cliffs, NJ: Prentice-Hall, 1977.
2. Hirschi, T. Causes of Delinquency. Berkeley: University of California Press, 1969.
3. Eysenck, H. J. Crime and Personality. London: Routledge, 1970.
4. Mavlonova R. X. "Yoshlar jinoyatchiligini oldini olishda oilaning roli", Yuridik psixologiya jurnali, 2022.
5. O'zbekiston Respublikasi Jinoyat Kodeksi, 2023.